



XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko'chasi 238-uy. 190500, [tel.: \(+99876\) 41-31-400](tel:+998764131400)

2022 - yil 20 - yanvar

VI-54-12-8-111-K/22

Denov tuman hokimligi

Denov tuman mahalliy byudjetiga 2022 yilga O'zbekiston Respublikasi Respublika byudjetidan ajratilgan ssuda mablag'laridan maqsadli foydalanish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 140-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 apreldagi "2020-2022 yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-4667-sonli qarori ijrosi haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 apreldagi "2020-2022 yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 222-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Denov tumani markazida olib borilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlarini davom ettirish uchun tuman mahalliy byudjetiga O'zbekiston Respublikasi Respublika byudjetidan ajratilgan 8,0 mlrd so'm ssuda mablag'laridan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashi qaror qiladi:

1. Denov tuman mahalliy byudjetiga O'zbekiston Respublikasi Respublika byudjetidan qaytarish sharti bilan 8,0 mlrd so'm ssuda mablag'i ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Denov tuman markazida olib borilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun talab etiladigan xarajatlar ro'yxatiga ilova muvofiq tasdiqlansin.

3. Denov tumani bo'yicha g'aznachilik bo'linmasi (X.Primov) tuman hokimligi hisobxonasi (A.Normurodov) Obodonlashtirish boshqarmasi (I.Bo'ronov) tuman maktabgacha ta'lim bo'limi (A.Inatullaev) tuman xalq ta'lim bo'limi (Ch.Xaydarov) tuman tibbiyot birlashmasi (I.Yusupov) tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtalik markazi (X.Saparov) tuman qishloq xo'jaligi bo'limi (B.Sherov) tumanlararo sil kasalliklar dispanseri (Q.Nazarov) tuman irrigatsiya bo'limi (K.Qo'chkarov) tuman

mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (M.Rasulov)lar ajratilgan mablag‘larni qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda xujjatlarni rasmiylashtirish va maqsadli sarflash vazifasi yuklatilsin.

4. Denov tuman hokimligi Moliya bo‘limi (A.Muxamadiev) har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Respublika byudjetidan ajratilgan ssuda mablag‘larining sarflanishi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga axbarot berib borsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Denov tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O‘.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Туман ҳокими



Pardayev.R.U

Халқ депутатлари Денов туман
Кенгашининг
2022 йил 20 январдаги
VI-54-12-8-111-К/22-сон қарорига
1-илова

Халқ депутатлари
Денов туман
Кенгашининг
2022 йил « » январдаги
-сон қарорига
илова

**Денов туман маҳаллий бюджетига 2022 йилга Ўзбекистон Республикаси
Республика бюджетидан ажратилган ссуда маблағларидан мақсадли
фойдаланиш рўйхати**

Т/р	Ташкилотлар номи	Соҳалар бўйича ажратилган маблағ мақсади	Миқдори (минг.сўмда)
а	1	2	3
Жами ажратилган маблағ			6 410 804,0
1	Туман Ҳокимлигига	Лойиҳалаштириш ишлари учун	503 598,0
		"E-qaror" ахборот тизимидан фойдананиш учун	36 000,0
		Мебел ва жиҳозлар сотиб олиш учун	169 000,0
		Баннерлар тайёрлаш ишлари учун	125 545,0
		Юқори тезликда интернет хизмати линияси ўтказиш учун	35 000,0
		Фуқораларга снос тўловлари тўлаш учун	89 000,0
		Ёшлар кичик саноат зонасини ташкил этиш учун қоплама тўловлари учун	200 000,0
		Туман Мудофаа бўлимига мебел ва жиҳозлар сотиб олиш учун	222 778,0
		Туман Мудофаа бўлими биносини таъмирлаш ишлари учун	600 000,0
		Тумандаги Янгиобод, Ўртақишлоқ, Навбахор ва Бинокор маҳалла фуқаролар йиғини биноларини қуриш учун	400 000,0
2	Туман Қишлоқ хўжалиги бўлими	Қишлоқ хўжалиги ерларини "Yer Axborot Tizimi" порталини яратиш ишлари учун	150 000,0
3	Туман Ободонлаштириш бошқармасига	Майиший чиқиндиларни вақтинча сақлаш учун контейнерлар ясатишга	250 000,0
		Ёкилғи маҳсулотлари сотиб олиш учун	240 000,0
		Манзарали ва мевали дарахтлар ҳамда гул кўчатларини экиш учун	300 000,0
		Қабристонларни ободонлаштириш ишлари учун	30 000,0

4	Туман Мактабгача таълим бўлимига	Мактабгача таълим муассасаларига жиҳозлар сотиб олиш учун	163 000,0
		Мактабгача таълим муассасаларини атрофини ўраш ва ободонлаштириш учун	399 794,0
		Тумандаги 3-сонли мактабгача таълим муассасини таъмирлаш учун	427 200,0
		Тумандаги 4-сонли мактабгача таълим муассасига мебел ва жиҳозлар сотиб олиш учун	175 789,0
		Мобил мактабгача таълим муассаси учун хизмат кўрсатиш жойни таъмирлаш ишлари учун	98 000,0
5	Туман Халқ таълими бўлимига	Тумандаги 71-сонли мактабда таъмирлаш ишлари учун	250 000,0
		Тумандаги 13-сонли мактабда таъмирлаш ишлари учун	96 357,0
		Тумандаги 65-сонли мактабда таъмирлаш ишлари учун	25 981,0
		Тумандаги 65-сонли мактаб филиалида таъмирлаш ишлари учун	32 001,0
		Тумандаги 90-сонли мактабда таъмирлаш ишлари учун	17 832,0
		Тумандаги 94-сонли мактабда таъмирлаш ишлари учун	10 930,0
		Тумандаги 54-сонли мактаб филиалида таъмирлаш ишлари учун	18 903,0
		Тумандаги 3-сонли мактабда таъмирлаш ишлари учун	10 000,0
		Тумандаги 10-сонли мактабда таъмирлаш ишлари учун	30 000,0
		Тумандаги 26-сонли мактабда таъмирлаш ишлари учун	60 000,0
		Тумандаги 51-сонли мактабда таъмирлаш ишлари учун	60 000,0
6	Туман Тиббиёт бирлашмасига	Юқори тезликда интернет хизмати линияси ўтказиш учун	251 096,0
		Туманлараро қўшма шикастланишлар ва ўткир қон-томир касалликлар маркази бўлимини кислород линиялари билан таъминлаш ишлари учун	250 000,0
		13-КОП филиали (Тасмасой) биноси таъмирлаш ишлари учун	70 000,0
7	Туман Сил касалликлар диспансерига	Юқори тезликда интернет хизмати линияси ўтказиш учун	15 000,0
8	Туман санитария эпидемиология осойишталик маркази	Биносини таъмирлаш ишлари учун	300 000,0
9	Туман Маҳалла ва оилани қўллаб қувватлаш бўлими	Маҳалла фуқаролар йиғинларига юқори тезликда интернет хизмати линияси ўтказиш учун	98 000,0

10	Туман Ирригация бўлими	Тумандаги ариқ ва зовурларни қозиш ҳамда тозалаш ишлари учун	200 000,0
----	------------------------	--	-----------